

ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING TASHQI VA ICHKI SIYOSATGA DIPLOMATIK YONDASHUVI VA UNING AJOYIB HISLATLARI

Samiyev Turg‘un Xushvaqovich

*O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga qarashli Markaziy Harbiy Okrugi
20022 harbiy qism harbiy xizmatchisi*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola Zahriddin Muhammad Boburning tashqi va ichki siyosatga, dimlomatik yondashuvi natijasida, tinchlik va hamdo‘stlik, millatlar a‘ro totuvlik, diniy bag‘rikenglik, huquqiy fuqarolik jamiyatimi qurish yo‘lidagi say harakatlari va uning bu natijalariga erishishga sabab bo‘lgan hislatlari.*

Kalit so‘zlar: *Zahriddin Muhammad Boburning tashqi va ichki siyosatdagi diplomatik mahorati va go‘zal hislatlari.*

KIRISH

Butun dunyo olimlari Zahriddin Muhammad Bobur, shaxsini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarining, eng katta sabablaridan biri, dini boshqa tili boshqa va ko‘p millatli hind diyorida, Boburiylar sulolasi tarixda eng uzoq hukumronlik qilganidir. Boburning mukammal qobiliyatlaridan tashqari, boy va go‘zal hisallatlarga eng bo‘lgani ham, uning shaxsi va diplomatiyasini o‘rganishga kishini be extiyor undaydi. U zamonasida Boburga teng keladigan, go‘zal xulq atvor, rahm-shavqat, halollik, poklik, vafodorlik, sabr-toqat kabi hillatlarga ega bo‘lish bilan birga fuqoralar manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yadigan adolatli humdor ham edi. Hindistonlik tatqiqotchi, professor Sanjay Kumar Pandiy shunday deydi: Bobur Hindistonga 1526-yilda kelgan va hozirgi kunga qadar katta ehtirom bilan, xalqimiz tomonidan, judayam ezgu hotiralar bilan, yod oladi. Boburiylar sulolasi Hindistonda, 332 yildan ortiq hukumronlik qildi, bu davr ichida mamlakat me‘morchiligi, madaniyati-ma‘rifiy va boshqa sohalarning rivojlanishiga, o‘lkan hissa qo‘shgan va hozirgi buyuk Hindistonni, poydevorini yaratdi. Bobur va Boburiylar sulolasi, mamlakatimizni siyosiy va diplomatik jihatdan, birlashtirish, obodonlashtirish va madaniy yuksalish nuqtayi nazardan, tingsiz o‘rin tutdi. Mustaqil O‘zbekistonning Hindiston bilan do‘stona diplomatik alaqalari, Boburning qadimda hind xalqi bilan boshlab bergan diplomatik a‘loqasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi, dep hotirlaydi.

ASOSIY QISM

Shox va shoir qomusiy olim, geograf, tarixchi mutafakkir, mohir sarkarda, siyosatchi va diplomat Zahriddin Muhammad Bobur o‘z davrida, diplomatiyaning yangi bosqichlarga chiqardi va shakillantirdi. Ma‘limki diplomatiya bir nechta turlarga bo‘linadi. Ular asosan xalq diplomatiyasi, an‘anaviy diplomatiya, kibr dimlomatiyasi va boshqa turlari: Diplomatiya bu bitta davlatning boshqa davlat bilan aloqa o‘rnatishga bo‘lgan qiziqishi xalqora munosabatlarni muzokara va kelushuv yo‘li bilan hal etishdir. Diplomatiya so‘zi

Yunoncha so‘z bo‘lib “Bukilgan qog‘ozda muzokara yo‘li bilan kelishuvga erishish ma‘nosini bildiradi”. Bobur o‘z davrida diplomatiyani faqatgina tashqi siyosatda savdo sotiq aloqalardagina emas, diplomatiyani boshqa sohalarida ham tadbqiq etdi. Boburning xalq bilan, boshqa davlatlar vakillari bilan, kichik-kichik qabilalar va boshqa diniy ulamolar bilan o‘tkazgan uchrashuvlari va muzokaralari so‘zimizning yaqqol isboti bo‘la oladi. Boburning diplomatiyasi tufayli Qobul va Hindiston, tashqi va ichki siyosati, kundan-kun rivojlanib bordi. Bu diplomatik qobiliyat Boburda yoshlik chog‘larida shakillangan edi. Farg‘ona hokimi bo‘lgan Umarshayx Mirzoning o‘g‘li Zahiriddin Muhammad Bobur bobosi Amur Temur tuzgan saltanat sarhadlarini qayta tiklash, uni yanada qudratli davlatga aylantirib, urushlarga ichki nizolarga barham berish, tashqi tahdidlarga chek qo‘yish, fuqoralarni tinch-totuv yashashini ta‘minlashdek ulug‘vor maqsadi bo‘lgan. Bobur yosh shaxzoda bo‘lishiga qaramasdan yurtni adolatli boshqardi. Tabiiyki xalq ichida obro‘yi oshib borayotgan shaxzodani, boshqa Temuriy shaxzodalar va Temur naslidan bo‘lgan bek va amaldorlar Boburni ko‘rolmas edi. U Samarqand va Andijon taxti uchun Sulton Ahmad tanbal bilan o‘tkan janglar paytida ko‘plab diplomatic muzokalar olib bordi. Shundan ham bilish mumkinki, Bobur diplomatiya va siyosatni yaxshi o‘zlashtirdan edi. Boshqa Temuriy zodalar Boburdek bilimli va ma‘naviy yutuk bo‘lmasalar ham, Amur Temur tuzgan o‘lkan saltanatga o‘zlarini haqi bor deb bilishar edi. Hech kim bir- biriga bo‘yin egmas, turli sun‘iy ziddiyatlar paydo qilishar edi. Taraflarning fikrlari to‘g‘nasuvlarga ham olib kelardi. Bundan tashqari Boburning katta va kichik xon bobolari Andijon mulkiga egalik qilish maqsadi munosabatlarni chegallashtirardi ham. Yosh shaxzodani aldashga o‘rinishlari foyda bermasdi. Ziyrak Bobur ularning niyatlarini yaxshi tushunib, ulardan juda qattiq ranjiganini Boburnomada tasvirlab beradi. Boburning yonida bo‘lgan vazirlar va amaldorlar o‘z nafsining qo‘liga aylanib tinmay hoyinliklar qilishadi va yosh shaxzodani juda ko‘p mushkil xolatlarga solib qo‘yishardi. Buni Uzun Xasan Ali do‘st ikki yuzlamachiligi va boshqalarning o‘zaro Boburga bo‘lgan munosabatida aniq ko‘rinib turadi. Manashunday siyosiy taranlik paytlarida, bo‘lib o‘tgan janglarda otasining va o‘zining yaqin kishilarini yo‘qotishi Boburni kelajakda kuchli siyosatchi, diplomat va mohir sarkarda bo‘lib shakillanishiga sabab bo‘ldi. Juda ham ilmga chanqoq bu shaxs dunyoviy va siyosiy, bilimlar bilan birgalikda, diniy bilimlarni ham, yaxshi o‘zlashtirgan edi. Amir Temurning “Temur tuzuklari”, Chingizxonning “Yasoq qonulari” jamlanmasi o‘rganib tahlil qilib va o‘z davlatini tuzib adolatli boshqarishda aynan shular poydevor bo‘ldi. U barcha diplomatik uchrashuvlarda shoirona yondashuv bilan birgalikda, kishi shaxsiyatiga ruhiy ta‘sir etishni va bundan mavridida foydalanishni bilar edi. Muzokalar paytida muhokama mavzuga misollar keltirib suhbatdoshlarini hayratga solar edi. O‘sha davrda so‘zlashish muomila madaniyatini Boburdek nozik so‘zlardan foydalanib ishlatishni biladiganlar kishilar sanoqli edi. Juda murakkab vaziyatlardan ham chiqib ketishga bu qobiliyati yordam bergan. Bundan tashqari juda qiyin vaziyatlarda, diplomatik kelishuvlarga, erishisha oldi. Boshqa mamlakat vakillari bilan olib borogan muzokaralar jarayonida Boburni kuchli diplomatik mahorati namoyon bo‘ldi. 1504-yilda Bobur Qobul tomonga kelra ekan, yigirma to‘rt yoshlik, Bobur u yerdagi vaziyatni sinchiklab o‘rganib, o‘sha

paytdagi Qobul hukmdori, bo‘lmish Muqimbekka diplomatik ta’sir o‘tkazib, “Seni va yaqinlaringni omon qo‘yaman, hohlagancha saroy xazinasidan olib, shaharni tark et” deb, diplomati kelishuvga erishadi va Bobur vadasida turadi. Katta qiyinchiliklarsiz avval o‘z sulolasiga tegishli bo‘lgan Qobulni egallab oladi. Bobur Qobul yaqinidagi G‘azna sharini ham diplomatik yondashuv yo‘li bilan egalladi. Qobul va G‘azna sharida Bobur kelgan vaqtda vaziyat unchalik ham Yashi emas edi. Mana shuyerdan boshlab Boburni kuchli diplomatiyasi va siyosati yanada takomillasha boshladi. Bu diplomatiya buyuk imperiya qurushda poydevor vazifasini ham bajardi. Qobulda ham, G‘azna sharida ham kichik-kichik qabilalar o‘rtasida turli ziddiyat va kelishmovchiliklar avj olib ketgan edi. Savdo yo‘llarini qaroqchilarga to‘la, hamma o‘z kuni kurib yashashga o‘rganib qolgan edi. Bobur bu masalaga ham diplomatik yondashdi. Savdo yo‘lida joylashib olgan qaroqchilarni muzokara majlisiga chaqirib ularga dehqonchilik qilish uchun yer va joylar berdi. Shuning bilan birgalikda bozorlar va savdo yo‘llari tozalandi, soqchilik nazoratini o‘rnatdi. Shaharda aniq bir qonuniy tartib o‘rnatildi. Bobur Qobul bog‘larida sayr etib yurgan paytlarida Qobul qabilalari, dardorlaridan birining qizini kurib qoldi va unga, uylandi va qabila sardori tufayli qolgan qabilalarni ham birin ketin bo‘ysindirdi. Qisqa vaqt ichida Qobul va G‘azna shahri iqtisodiyoti tez suratlarda o‘sib bordi. Bobur xalq ichida yurib, fuqarolar bilan uchrashuvlar o‘tkazib muammolarni o‘rgandi. Dehqonchilik va chorvachilik uchun yerlar ajratildi. Shu qatorda me’morchilik va san’at, madaniyat, kulolchilik, naqqoshlik rivojlantirdi va ularga homiylik qildi. Bobur bu orada Qobulda mustahkam joylashdi. Uz xalq va boshqa davlatlar o‘rtasida kundan kun obro‘si oshib bordi diplomatik mahorati va siyosat yuritishi, haqida Eron podshohi Ismoil Safayiv tomonidan iliq tilaklar bildirib maktublar yozib turardi. Ayrim masalalarda firk ham almashib maslahat solardi. Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning turli siyosiy diplomatik mahorati bugungi kunda iftihor va g‘urur bag‘ishlaydi. Boburning Qobuldagi siyosati va diplomatiyasiga nazar solsak Temuriy shaxzodalar bilan birga ancha farqi ancha edi. Shayboniylarga qarshi kurashish uchun Hirotga Temuriy shaxzodalar bilan uchrashuvda Boburning diplomatiyasi kuchli tafakkuri va siyosati yaqqol namoyon bo‘ladi. Badiulzamon mirzo va Muzaffar mirzolarining taklifiga binoan uchrashuvga kuchli tayyorgalik bilan, Hirotga yetib boradi. Uchrashuvda ayrim shaxzodalarning may ichgan holda tashrif buyurgani Boburning dilini xira qilibadi, O‘ta muhim bo‘lgan diplomatik va siyosiy uchrashuvda shaxzodalarning befaqlik bilan tashrifi, Boburga uncha hush kelmadi. Ayrim shaxzodalar kechib ham kelgani, ustiga-ustak uchrashuv paytida odobsiz xazillari, kattlarni hurmat, kichiklarni izzat qilishni odat etmasligi va buyuk sohibquron Amir Temur barpo etgan, shunday buyuk saltanatni, idora qilish bachkana, mayxo‘r, shaxzodalar qo‘liga qoldimi deb xo‘rsinib qo‘ydi. Bugungi kungacha bir biriga qarshi lashkar tortib ziddiyatlashib yurgan shaxzodalar Shayboniylarga qarshi birlashish maqsadida ushbu anjumanga yig‘ilgandilar. Uchrashuvda ularning fikrlari bir-birlariga ma’qul kelmasdi. “Boburnoma”da “elga bosh bo‘lgan kishi hamisha aqldin bahramand bo‘lishi har bir hatti harakatni nazorat qilib, aql bilan ish yuritish lozim” ligini, Bobur takidlaydi.

Anjumanni Bobur quyidagi misralarda tasvirlagan:

“G‘araz kimb u dunyoda kishidin ushmundoq nimalar qolur.

Har kim aqldan barhamad bo‘lsa nega andoq harkatga iqdom qilg‘aykim

Andin so‘ng yomon deganlar va har kishida hushdin asari bo‘lsa nega andoq amirga,

Iqdom ehtirom qilmag‘aykim qilg‘andiq so‘ng Mustaxsin degaylar”

Badiulzamon mirzo bilan bo‘lgan uchrasuv jarayonlarida munosabatlarni nozik tamonlari na‘mayon bo‘ladi. Xusayin Bayqoroning turg‘ich o‘g‘li Badiulzomon mirzo katta tajribaga ega uz mavqiyi qadrini biladigan shaxs bo‘lgan. Lekin Bobur undan ancha aqilliy siyosatchi edi. Uchrashuvlarning birida Badiulzomon mirzo tashrib buyurgan xonaga hamma urnidan turib hukumdorga bosh egib xurmat bildiradi. Lekin Bobur unday qilmaydi. Buni ko‘ratib turgan saroy ayonlari va vazirlar xatto Badiulzamon mirzo ham Boburga bosim o‘tkazmoqchi bo‘ladi. Shunda Bobur unga men ham Temuriy shaxzodaman Samarqand va Andijon hukumdori bo‘ldim, hozirda Qobil Fatx edim bosh egishim nechun siz bilan bir mavqiydaman deb javob beradi. Bobur Badiulzamon mirzo devoniga tashrif bo‘yurganida ham u suskashlik bilan o‘rtnidan turadi, buni Bobur o‘ziga nisbatan hurmatsizlik sifatida kuradi. Bu nozik munosabatlarda Boburni kuchli siyosatchi ekani yana bir bor ko‘rishimiz mumkin va Bobur Qobilga qaytib keladi. U Boburnomaga Xirotda vaqtida Alisher Navoiyning uyida yigirma kun bo‘lganini ham yozadi. Bobur Qobilda vaqtida Hindistondagi Panjob va boshqa vilolatlar hokimlari tomonidan Bobur bilan diplomatik aloqalar o‘natishga harakat qiladi va ular bunga erishdi ham, maktublar yozib, elchilar junatib, Boburni Ibroxim Ludiya qarshi kurashish uchun, Hindistonga taklif qiladi. Bobur Ibroxim Ludi va uni askarlari qurol yaro‘gi o‘tkazgan janglar to‘g‘risida ma‘lumotlar to‘playdi. Strategik jixatdan muxum bo‘lgan, jang taktikasini ishlab chiqadi. Bobur Ibrohim Ludining sakson ming sonli qo‘shiniga qarshi Bobur un ikki ming sonli ixcham va tezkor qo‘shin bilan jang olib boradi. Boburda tup otar artilerya borligi, jang ustunkilni beradi va g‘alaba qozonadi. Bobur artirilyasi ovoizidan chuchib kergan Bobur Ibrohim Ludi felari uz qo‘shinini yakson qilib tashlaydi va Hindistonda o‘z hukumronligini o‘rnatadi. Bobur kichik kichik rojaliklarga bo‘linib ketgan, ulkan viloyatlarni markaziy saltanatga birlashtiradi. Bu jarayonda ko‘plad diplomatik uchrashuvlar olib boradi. Bobur Hindistonda juda ko‘plab inshotlar qurdi, hech bir soha ko‘zdan chitda qolmadi. Bugungi buyuk Hindistoni va Boburiylar sulolasiga asos soldi. Samaqand Safaviylar quliga utgandan so‘ng Boburni Fulod sultonga shery devonlaridan birini sovg‘a qilib yuborishi Samarqandning sultoniga yuksak ishonch do‘stlik munosabatini bildiruvchi diplomatik yorlig‘ ham edi. Qolaversa vatan sog‘inchining bir sifatida baholash mumkin.

Ul sarvini xaramig‘a gar etsang ey sabo,

Bergil bu hajr hastasidin-yo‘q kungilga.

Raxim aylabon sog‘inmadi Boburni bor umid.

Sog‘ay xidoyat raxmini Fulod kunglig‘a.

Bobur nomada yozilishicha, saltanatda haftani ma‘lum bir kunida diplomatik Munosabatlarga bag‘ishlandan elchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazadigan kun etib belgilangan.

Bobur o‘limdan avval diplomatik sifatida 1530-yilda Rossiya knyaziga chopar yuborgan. Chopar ikki yil yo‘l yurib Rossiya knyaziga “Boburnoma” ning bir varoq qo‘lyozmasini sovg‘a qilgan. Bundan mamnun bo‘lgan knyaz ushbu qo‘lyozmani ovqatlanishdan oldin ham, uyquga ketishdan oldin ham bir marotaba mutoala qilganligi tug‘risida ma‘lumotlar bor. Bugungi kunda ushbu qo‘lyozma Rossiya Federatsiyasidagi Davlat jahon muzeyida saqlanib kelinmoqda. Bu qo‘lyozmani ham butun dunyoo olimlari va Bobur shaxsiga qiziquvchi insonlar ham borib,ko‘rishmoqda. O‘zingiz bir o‘ylab ko‘ring, Zahiriddin Muhammad Boburni betakror bir varoq asl qo‘l yozmasining qadr qimmatini balandliligi, bizlarga nechog‘lik ulkan iftihor beradi. O‘sha davrda diplomatik aloqalarda qimmat baho sovg‘alar,oltin, kumush buyumlar,in‘om etilgan,bir paytda, Boburning asarlari oltindan ham qimmatbaho bo‘lgan. Bobur mamlakatga tashrif buyurgan aksariyat,elchilar qimmatbaho buyumlardan ko‘ra, Bobur o‘z qo‘li bilan,yozgan asarlarni ihlosmadi,edilar va ular uchun eng oliy sovg‘a sifatida ko‘rishgan. Hozirda kunda asl qo‘lyozmalar Fransiya kutubxonalari va Luvir qolaversa AQSH ning Garvard Universitetida, maxsus muzeylari va kutubxonalarida saqlanib kelmoqda.

XULOSA

Bugungi kungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlariga rasm soladigan bo‘lsan ularning turmush tarsi iqtisodiy-ijtimoiy madaniy-ma‘rifiy va boshqa sohalarda ham,kundan kun barqaror o‘sib borayotganini ko‘rishimiz mumkin, shu bilan birgalikda qudratli va zamonaviy armiyaga ega bo‘lib bormoqda. Bunaqa rivojlanish sabablarini chuqurroq o‘rgansak anglash qiyin emaski, shubhasiz buning zamirida kuchli siyosat va diplomatik aloqalar turadi. Biz yoshlar ham yurtimni qudratli davlatga aylantirib, buyuk bobolarimizga munosib farzand bo‘lishimiz eng oliy burchimizdir. Aslini olib qaraganda dunyo ahli davlat boshqarish va siyosatni, diplomatiyani boshqa sohalarni ham bizning bobolarimizdan o‘rgansak desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunga ko‘p emas birgina misol Zahiriddin Muhammad Boburning “Voqiyanoma”, ya’ni “Boburnoma” asarini bugungi kunga qadar dunyo olimlari o‘rganib tadqiqotlar o‘ykazishayotgani,misol bo‘la oldi.Bobur davlat boshqaruv siyosati va diplomatiyasini yangicha ko‘rinishda boshqa davlatlarda diplomatlarni tayyorlashda foydalanib kelinmoqda. Bu buyuk asarni o‘qisangiz qaysi soha vakili bo‘lishingizdan qat’iy nazar barcha sohalarga,oid ma‘lumotlar topishingiz mumkin. Mamlakatimizda ham diplomatik huquqiy davlat qurishda, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida, Bobur va boboriylarning jamiyat hayotini tashkil etishdagi ijtimoiy-siyosiy faoliyati ayniqsa bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib kelayotgan, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik, boshqa din vakillari bilan hamjihatlik kabi siyosatni olib borishda Bobur va boburiylarning tajribalarini tadbiq etish,eng muhim vazifalardan biridir. Yurtboshimiz tomonidan olib borayotgan siyosat va diplomatik aloqalarda buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Birgina misol keltiradigan bo‘lsak prezidentimi tashabbusi bilan ilgari surilayotgan “yashil makon” umum milliy loyiha doirasida olib borilayotgan ishlarni ham Boburning bog‘lar yaratish loyihasini yangicha ko‘rinishda davom etiriyotgan davomchisi desak hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Xasan Qudratullayevni-Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi kitobidan
2. G‘ofurjon Satimov ingliz tilidan tarjima qilinga Bobur yulbars kitobi.
3. G‘ofurjon Satimov Boburiylar saltanatida davlat Boshqaruvi kitobi
4. Botir Yuldashev Boburiy Malikalar kitobi
5. Gulbadan begim Xumoyunnoma asari
6. Rahmon Farmonov Shoh va shoir diplomat kitobi
7. Internetning you tube tarmog‘idan Boburshunos olim Botir yuldasher